



MUSTAQILLIK DAVRIDA TARIXGA OID RASMIY MANBALARNING O'RGANILISHI

Dexkanov Narimon Burxonjonovich

Namangan davlat universiteti tarix kafedrası professori v.b.,
siyosiy fanlar doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7316283>

ARTICLE INFO

Received: 02nd November 2022

Accepted: 11th November 2022

Online: 12th November 2022

KEY WORDS

Mustaqillik davri, tarixiy manbalar, tadqiqotlar, o'rganish, izlanishlar.

ABSTRACT

Ushbu maqoda mamlakatimizning mustaqillik yillaridagi tarixiy islohotlari va ushbu sohani o'rganish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Ushbu masala yuzasidan manbalarning o'rganilganlik darajasi ham maqolaning asosiy qismi sifatida ko'rib chiqilgan.

Istiqlol davri tarixi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning murakkabligi, dunyo taqdiriga daxldor bo'lgan muammolar, serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlar, eng kichik, o'ta muhim bo'lgan barcha hodisalarni o'zida jamlagan. Manbashunoslikka oid bajarilgan tadqiqotlar, yozma manbalar, tarjimalarning chop etilishi mazkur davrni o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.¹

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga irtilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni,

shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlash omillari, ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi kabi masalalar mustaqillik davridagi muhim tarixiy voqealardir. Ularni o'rganish va mushohada qilish kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yoshlarni tarixiy an'analarga, Umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga

¹ Azizkhon Mukhammadqodirovich Rasulov "Mustaqillik davri tarixi rasmiy MANBALARI'SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601 544-b



sadoqat ruhida tarbiyalashda ko'maklashadi.

ADABIYOTLAR TAHLIL

Ushbu masalaning bayoni avvalo O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi ning Farmoni va unda belgilangan O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish ustuvor vazifasi va Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tahlili asosida yozildi. Maqolada N. Oblomurodov va F. Tolipovlar tomonidan 2022 yilda chop etilgan "O'zbekiston tarixi" darsligiga ham murojaat qilindi. Maqola barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda qabul qilingan ob'ektivlik, izchillik, tarixiy hamda ijtimoiy voqea va hodisalarni xronologik asosda o'rganish, manba va dallilarga tayanish va ularning haqqoniyliga asoslanish tamoyillari negizida yoritildi.

Xususan akademik Ahmadali Asqarovning 2015 yilda "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" nomli kapital asarida ilgari surilgan O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasiga oid konsepsiyasining qisman tahlili ham masalaga asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Maqolada N. Oblomurodov va F. Tolipovlar tomonidan 2022 yilda chop etilgan "O'zbekiston tarixi" darsligiga ham murojaat qilindi. Maqola barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda qabul qilingan ob'ektivlik, izchillik, tarixiy hamda ijtimoiy voqea va hodisalarni xronologik asosda o'rganish, matematik tahlil, manba va dallilarga tayanish va ularning

haqqoniyliga asoslanish tamoyillari negizida yoritildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tarixni o'rganishda ilmiy tadqiqotlarning tutgan o'rni beqiyos hisoblanadi. Zero, Vatanimiz tarixini xolisona, har qanday mafkuraviy tazyiqlarsiz, zafarli va tushkunlik yillarini yashirmasdan xalqqa etka-zishda tarix fani tadqiqotchilarining xizmati katta. Prezident I. A. Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "... tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi"².

Ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanish jarayoni talabalikdan boshlab umrning oxirigacha, xususan, ilmiy darajalar, unvonlar olingandan keyin ham davom etaveradi. Aslida ilm bilan shug'ullangan tadqiqotchiga berilgan ilmiy daraja va unvonlar ilmiy izlanishlari natijasining tasdiqlangani, e'tirof etilgani deyish ham mumkin. Ammo ana shu ilmiy daraja, unvon bo'yicha e'tirofga erishish yillar davomida ilmiy izlanishlar, maqolalar, kitoblar yozishni, shogirdlar etishtirishni taqozo etadi.³

Mazkur masala yuzasidan ko'plab ilmiy izlanishlar olibborgan va O'zbekiston tarixini yangicha davrlashtirish borasida o'zining nazariy konsepsiyasini ilgari surgan akademik A.Asqarov bu borada alohida ta'kidlab, o'ziga xos ilmiy tavsiyalarini ilgari surib, quyidagilarni qayd etadi: "Sho'rolar davri tarix fanida

² Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008. - Б. 97

³ Abdulla Rasulov "Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti" (o'quv qo'llanma) Namangan – 2012 3-b



kishilik jamiyati tarixini 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy farmatsiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, kuldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm)ga bo'lib o'rganish an'anaga aylangan edi. Sobiq SSSR parchalanib, kommunistik g'oya va sotsializm sistemasi barbod bo'lgandlan so'ng, jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy qonunlari o'zgardi.⁴

Jumladan, mamlakatimiz tarixini yagona nazariy konsepsiya asosida davrlashtirish masalasi ancha yillar talay bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Ammo keyingi yillarda O'zbekiston tarixi fanida boy o'tmishimizni davrlashtirish masalasi o'z yechimini topdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, har bir xalq va millat tarixi ma'lum mahalliy shart sharoitlar va qonuniyatlar asosida rivojlanadi va shu asosda davrlashtiriladi. Chunki insoniyat tarixi dunyoning turli mintaqalarida turli tarixiy davrlarda turlicha kechgan bo'lib, biron bir mintaqadagi tarixiy jarayonlar ikkinchi mintaqadagi tarixiy jarayonlardan tubdan farq qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Prezident Shavkat Mirziyoev qayd etganidek, "Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tarixning yangi

sahifasini yaratishga qodirmiz". Albatta, bu qadimiy va tabarruk maskandan buyuk allomalar, fozillar, olimu ulamolar, sarkardalar yetishib chiqqan. Ko'plab diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. O'tmishda barpo etilgan muhtasham tarixiy yodgorliklar va inshootlar shu kungacha o'z ko'rkini, mahobatini yo'qotmaganligi, qadimdan yurtimizda o'troq dexqonchilik, rivojlangan hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik, shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Ushbu tarixiy merosni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari hamda tamoyillari xususidagi muhim takliflarning davlatimiz rahbari tomonidan o'rta tashlanishi mustaqillik yillarida haqqoniy tariximizni o'rganish borasidagi ayrim muammolarni hal qilishda muhim dastur bo'lmoqda. Ayniqsa bu borada uzoq yillar mobaynida yo'l qo'yilgan ayrim xato va kamchiliklarni ro'y rost tanqidiy tahlil qilinishi ham muhim voqea bo'ldi. Bu borada o'z fikr mulohazalarini bildirgan Prezidentimiz quyidagilarni qayd etadi: "Afsuski, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur."⁵

⁴ Обломуродов, Наим ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ ҲАҚИДА // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekistonda-zbekiston-tarixi-fanini-itishning-ayrim-zhi-atlari-a-ida> (дата обращения: 09.11.2022).

⁵ Толипов, Файзулла ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИ ДАВРЛАШТИРИШГА ОИД ЯНГИЧА ТАЛҚИНЛАР ХУСУСИДА (Академик А. Асқаров назарий-методологик ғояси асосида) // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-tarixini-davrlashtirishga-oid-yangicha-tal-inlar-hususida-akademik-a-as-arov-nazariy-metodologik-oyasi-asosida> (дата обращения: 09.11.2022).



O'zbekiston mustaqilligi yillarida xalqimizning o'tmishi, milliy urf-odatlar, qadriyatlar o'ziga qaytarildi. Sovet tuzumi yillarida oyoq osti qilingan ma'naviyatimiz mustaqillik sharofati bilan tiklanib, uni boyitish yo'lida qator xayrli ishlar qilindi. Darhaqiqat, tarixni to'g'ri davrlashtirish asosida fanga oid bilimlarni yoshlar ongiga mukammal yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixni to'g'ri davrlashtirmasdan turib, uni xolis o'rganib bo'lmaydi.

O'zbekiston tarixini davrlashtirish va uni alohida tadqiqot uslubida o'rganish masalasida sovet davrida mutlaqo boshqacha yondoshuvlar mavjud edi.

Yuqorida aytilgan fikrlar va zabardast olimlarning ishlari aynan mustaqillik yillarida etirofga sazovor bo'ldi va tarix sohasida mutlaqo yangicha tadqiqotlar olib borishga zamin yaratdi.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston ixtisoslashgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy tashkilotlar bilan aloqalari va butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish

tarafdori ekanligi, xorijiy mamlakatlar, shuningdek, MDH davlatlari, Markaziy Osiyodagi qardosh mamlakatlar bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalariga oid rasmiy xujjatlar tashqi siyosat prinsplari aniqlab beradi. Shuningdek, rasmiy xujjatlar xalqaro terrorizmga qarshi, xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlarning milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlariga, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» niqobi ostida individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatishdan iborat ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda O'zbekistonda olib borilgan ma'naviy islohotlar jarayonini yoritishda muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan mamlakatimizning yangi tarixini ham qadim tarixini ham shaffof va ilmiy muhitda o'rganish va ushbu masalada yangicha yondashuvlarni kashf qilish hozirgi manbashunoslik, arxeologiya sohasi vakillari oldida turgan vazifadir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. // Yangi O'zbekiston. 2022 yil, 1 fevral, №22 (544)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr.
3. Asqarov A. "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi", T., 2015. "O'zbekiston". 67-90 betlar
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 97
5. Abdulla Rasulov "Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti" (o'quv qo'llanma) Namangan – 2012 3-b
6. Обломуродов, Наим ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ ҲАҚИДА // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekistonda-zbekiston-tarihi-fanini-itishning-ayrim-zhi-atlari-a-ida> (дата обращения: 09.11.2022).



7. Oblomurodov N. Tolipov F. O'zbekiston tarixi. (Oliy ta'lim muassasalarining nomutaxassislik talabalari uchun darslik). T., 2021.
8. Толипов, Файзулла ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИ ДАВРЛАШТИРИШГА ОИД ЯНГИЧА ТАЛҚИНЛАР ХУСУСИДА (Академик А. Асқаров назарий-методологик ғояси асосида) // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-tarihini-davrlashtirishga-oid-yangicha-tal-inlar-hususida-akademik-a-as-arov-nazariy-metodologik-oyasi-asosida> (дата обращения: 09.11.2022).
9. Cyberleninka.ru
10. Ziyonet.uz
11. Fayllar.org
12. Referat.uz
13. Arxiv.uz